

Navoiy viloyati statistika boshqarmasi

2020-YIL 1-YANVAR HOLATIGA YURIDIK SHAXS BO'LGAN KORXONALAR VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA TAHLILIIY MA'LUMOT


O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 25 sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 274-son qaroriga muvofiq korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.

Yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot


2015-2020 yillar 1 yanvar holatiga, fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda



Navoiy viloyatida qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

17 753
ro'yxatdan o'tgan korxonalar

17 067
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar



Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni 2020-yil 1-yanvar holatiga 17 753 tani tashkil etib, ulardan 17 067 tasi yoki 96,1 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 6 472 taga yoki 57,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2019 yil davomida viloyatimizda 7 295 ta yangi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5 268 taga ko'pdir.

Ro'yxatdan o'tgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha soni, birlikda

7512



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

2979



Oilaviy korxonalar

71



Unitar korxonalar

4867



Xususiy korxonalar

5




Aksiyadorlik jamiyati

77



Boshqalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyat


Mas'uliyati cheklangan jamiyat deb bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilab qo'yilgan miqdordagi ulushlarga bo'lingan jamiyat tan olinadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bo'lib zarar uchun o'zlari qo'shgan hissalarini qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.



Mas'uliyati cheklangan jamiyatning firma nomi jamiyatning nomini, shuningdek "mas'uliyati cheklangan" degan so'zlarni o'z ichiga olishi kerak.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar, soni



2019-2020 yillar 1 yanvar holatiga, birlikda





143,9 %





162,1 %





144,4 %





236,4 %





122,7 %





146,0 %




124,7 %




116,2 %




122,0 %




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha soni, birlikda




2020-yil 1-yanvar holatiga 14 885 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 4 556 ta, oilaviy korxonalar – 2933 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 7 204 ta, aksiyadorlik jamiyatlari 4 ta, unitary korxonalar 70 ta va boshqalar 192 tani tashkil etdi .

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (yanvar-dekabr oylarida)


birlik



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2019-yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni




Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha yangi tashkil etilgan tijorat korxonalarining umumiy sonidagi ulushi




2019-yilning yanvar-dekabr oylarida 7 295 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,5 martaga ko'pdir. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 2 944 ta, xususiy korxonalar – 1 872 ta, oilaviy korxonalar – 2 300 ta, unitar korxonalar – 12 ta, muassasalar – 118 ta va boshqalar – 49 tani tashkil etdi.

Faoliyat ko'rsatayotgan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning jamiga nisbatan ulushi




Faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari va tashkilotlari soni bo'yicha ma'lumotlar



2020-yil 1-yanvar holatiga sanoat korxonalari va tashkilotlari soni 2 833 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 156,6 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalar va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida – 159,9 % ga (jami sanoatdagi ulushi 91,5 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 131,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 6,7 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 130,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,5 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish – 115,6 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,3 %) o'sishidir.

Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda 2018-2019-yillar 1-yanvar holatiga



2020-yil 1-yanvar holatiga qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 1 439 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 137,4 % ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bo'lib, binolar va inshootlar qurishda – o'tgan yilga nisbatan 125,4 % ga (jami qurilishdagi ulushi 51,5 %), fuqarolik ob'ektlarini qurish – 90,4 % ga (jami qurilishdagi ulushi 5,9 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari – 169,3 % ga (jami qurilishdagi ulushi 42,6 %) o'sishidir.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda 2018-2019-yillar 1-yanvar holatiga




2020-yil 1-yanvar holatiga savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 5106 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 231,0 % ga oshdi. Jami savdo korxonalar va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili bo'lib, avtomobil va motosikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 249,7 % ga (jami savdodagi ulushi 71,6 %), avtomobil va motosikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 188,4 % ga (jami savdodagi ulushi 20,7 %), avtomobil va motosikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash o'tgan yilga nisbatan – 212,4 % ga (jami savdodagi ulushi 7,7 %) o'sishidir.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

Yashash uchun joy bilan ta'minlagan holda parvarishlash



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda



77
yashash bo'yicha xizmatlar




1 101
oziq ovqatlar va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar

2020-yil 1-yanvar holatiga yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 1 178 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 137,6 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bo'lib, oziq ovqatlar va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 133,6 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 93,5 %), yashash bo'yicha xizmatlar – 240,6 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 6,5 %) o'sishidir.


Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni



2020-yil 1-yanvar holatiga axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 188 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 116,8 % ga oshdi.

Jami axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bo'lib, televideniya dasturlari ishlab chiqish, ovoz yozish va musiqa asoslarini nashr qilish bo'yicha xizmatlar o'tgan yilga nisbatan – 75,0 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 3,2 %), axborot sohasidagi xizmatlar o'tgan yilga nisbatan – 116,7 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 14,9 %), nashriyotchilik xizmatlari o'tgan yilga nisbatan – 80,0 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 10,6 %) dasturlar tuzish va teleradio eshittirishlar bo'yicha xizmatlar – 200,0 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 1,1 %), kompyuter dasturlashtirish xizmatlari o'tgan yilga nisbatan – 132,6 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 30,3 %) telekommunikatsiya xizmatlari – 125,0 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 39,9 %) o'sishidir.

Oilaviy korxonalar soni, birlikda




Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yilning 1-yanvar holatiga 2 979 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 2 254 taga yoki 4,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2 933 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 2 209 taga yoki 4,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatmayotgan oilaviy korxonalar soni 46 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 45 taga yoki 46,0 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning soni, birlikda




Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020-yilning 1-yanvar holatiga 7 512 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 2 714 taga yoki 156,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 7 249 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 2 468 taga yoki 151,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatmayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 263 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 246 taga yoki 15,5 martaga oshganligini ko'rish mumkin.


2020-yil 1-yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



2019-yil 1-yanvar holatiga



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda, 2018-2020 yillar 1-yanvar holatiga



Shahar va tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda

	Jami	<i>shundan:</i>	
		Qo'shma korxonona	Xorijiy korxonona
Navoiy viloyati	209	131	78
Navoiy sh.	73	52	21
Zarafshon sh.	15	10	5
<i>Tumanlar:</i>			
Konimex	6	4	2
Qiziltepa	12	7	5
Navbahor	7	5	2
Karmana	52	33	19
Nurota	20	11	9
Tomdi	7	6	1
Uchquduq	8	1	7
Xatirchi	9	2	7

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Navoiy shahrida 73 (jamidagi ulushi 34,9 %), Karmana 52 ta (24,9 %) va Nurota tumanlarida 20 tani (9,6 %) tashkil etgan. Eng kami Konimex 6 ta (2,9 %), Navbahor va Tomdi 7 ta (3,3 %), Uchquduq 8 ta (3,8 %) hamda Xatirchi tumanlarida 9 tani (4,3 %) tashkil etadi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amaliy ishlarni yanada jonlantirish hamda rivojlantirish lozimligini ko'rsatmoqda.

Navoiy viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda

	Jami	<i>shundan:</i>	
		Qo'shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
Rossiya Federatsiyasi	41	27	14
Qozog'iston Respublikasi	7	4	3
Ozərbayjon Respublikasi	2	2	-
Qirg'iz Respublikasi	1	1	-
Tojikiston Respublikasi	5	3	2
Turkmaniston Respublikasi	3	2	1
Ukraina Respublikasi	1	1	-
Belarus Respublikasi	-	-	-
Armaniston Respublikasi	-	-	-
Moldova Respublikasi	-	-	-

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) 1991-yil 8-dekabrda MDH tuzish to'g'risida bitim va 1991-yil 21-dekabrda mazkur Bitim Protokoli asosida tashkil qilingan.

Ozərbayjon Respublikasi, Armaniston Respublikasi, Belarus Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi, Qirg'iz Respublikasi, Moldova Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston Respublikasi, Turkmaniston Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi va Ukraina Respublikasi MDHning ishtirokchi davlatlari hisoblanadi.


O'zbekiston MDH doirasida amaldagi o'zaro savdo tartibini yomonlashtirmaydigan tamoyillarga asoslangan, to'laqonli erkin savdo hududini tashkil etish tarafdoridir. Bu MDH hududida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Bugungi kunda Navoiy viloyati hududida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni oshib borayotganini inobatga olganda ularning asosiy ulushi (jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar nisbatan) Rossiya Federatsiyasi 19,6 %, Qozog'iston Respublikasi 3,4 %, Ozərbayjon Respublikasi 1,0 %, Qirg'iz va Ukraina Respublikalarida 0,5 %, Turkmaniston Respublikasi 1,4% va Tojikiston Respublikalarida 2,4 % ga to'g'ri kelmoqda.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni, birlikda




2019-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda




2019-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Navoiy (31 ta) va Zarafshon (7 ta) shahri, Karmana (26 ta), Nurota (11 ta), Uchquduq (7 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Navbahor (3 ta), Konimex (2 ta), Qiziltepa, Tomdi, Uchquduq tumanlarida (5 ta) korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.


Shahar va tumanlar kesimida har 1000 oilaga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari soni, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning shahar va tumanlar kesimida jamidagi ulushi



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni shahar va tumanlar kesimida soni, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning shahar va tumanlar bo'yicha soni, birlikda



2020-yil 1-yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning asosiy qismi Navoiy shahri (2 167 ta), Qiziltepa (1 187 ta), Karmana (1 178 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Zarafshon shahar (419 ta), Navbahor (594 ta), Nurota (451 ta), Uchquduq (469 ta), Tomdi (100 ta) Xatirchi (498 ta) va Konimex (186 ta) tumanlarida tashkil etgan.

Shahar va tumanlar kesimida kichik korxonalar va mikrofirmalarning faollik holatlari bo'yicha tarkibi, % da




2020-yil 1-yanvar holatiga kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 14 885 tani tashkil etdi. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 63,5 % ga ko'pdir. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Navoiy shahri (3 513 ta), Karmana (2 494 ta), Qiziltepa (1 917 ta) va Xatirchi (1 752 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Uchquduq (621 ta), Konimex (499 ta), Tomdi (221 ta) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Shahar va tumanlar kesimida oilalar va faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni, birlikda

	Oilalar soni ^{*)}	Tadbirkorlik subyektlari soni	
		01.01.2019-yil	01.01.2020-yil
Navoiy viloyati	261 472	9 181	14 955
Navoiy sh.	44 361	2 838	3 543
Zarafshon sh.	22 157	592	1 260
<i>tumanlar:</i>			
Konimex	7 790	238	505
Qiziltepa	38 834	1 009	1 922
Navbahor	27 846	800	1464
Karmana	37 996	1 692	2 505
Nurota	22 579	766	1 155
Tomdi	2 395	116	221
Uchquduq	10 918	311	622
Xatirchi	46 596	819	1 758



**) 2019 yil 1 yanvar holatiga tumanlar (shaharlar) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha kengashlari ma'lumotlari asosida jamlangan.*

2019-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining shahar va tumanlar bo'yicha soni, birlikda




2019-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining asosiy qismi Navbahor (430 ta), Xatirchi (419 ta), Karmana (417 ta) tumanlari va Navoiy (258 ta) shahri hissalariga to'g'ri keladi. Aksincha, Uchquduq (18 ta), Tomdi (27 ta), Nurota (116 ta), Konimex (130 ta) tumanlari va Zarafshon shahrida (132 ta) korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

2019-yilning yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar



Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni,



Shahar va tumanlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Navoiy shahri (4049 ta), Karmana (2748 ta), Qiziltepa (2160 ta), Xatirchi (2065 ta) va Nurota (1387 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Uchquduq (734 ta), Konimex (628 ta) hamda Tomdi (295 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborot-malumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.


Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan yoki belgilangan muddatda ustav jamg'armalarini shakllantirmagan hamda tugatish jarayonida bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lgan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-sonli qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo`mitasining www.stat.uz va Navoiy viloyati statistika boshqarmasining www.navstat.uz rasmiy saytlarida real vaqt rejimida, so`ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo`yilgan.

Navoiy viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrarni
yuritish bo`limi
Tel.:71-230-84-56